



## APPLICATION OF INTERNATIONAL HUMAN RIGHTS LEGAL NORMS IN COURTS

**Khusanova Surayyokhon Gaybulla qizi**

Fergana region Dang'ara district  
Fergana State University Faculty of History  
2nd year student of Jurisprudence  
khusanovasurayyokhan@gmail.com  
+998 50 887-74-04  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15400951>

### ARTICLE INFO

Received: 08<sup>th</sup> May 2025  
Accepted: 12<sup>th</sup> May 2025  
Online: 13<sup>rd</sup> May 2025

### KEYWORDS

Human rights,  
international norms,  
judicial practice, UN,  
constitutional law,  
national legislation,  
international treaties.

### ABSTRACT

*This article discusses the application of international human rights legal norms in the national judicial system, their legal force, direct application and problematic aspects in practice. The impact of international legal instruments, including the UN, the European Court of Human Rights and other regional mechanisms on the courts is analyzed. The level of application of international norms in the legislation and judicial practice of Uzbekistan is also assessed. The author indicates the obstacles to the implementation of international norms by the courts and makes recommendations for their elimination.*

## ПРИМЕНЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА В ОБЛАСТИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СУДАХ

**Хусанова Сурайёхон Гайбулла кызы**

Дангаринский район Ферганской области.  
Ферганский государственный университет, исторический факультет  
Студент 2 курса факультета «Юриспруденция»  
khusanovasurayyokhan@gmail.com +998 50 887-74-04  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15400951>

### ARTICLE INFO

Received: 08<sup>th</sup> May 2025  
Accepted: 12<sup>th</sup> May 2025  
Online: 13<sup>rd</sup> May 2025

### KEYWORDS

Права человека,  
международные нормы,  
прецедентное право,  
ООН, конституционное  
право, национальное  
законодательство,  
международные  
договоры.

### ABSTRACT

*В статье рассматриваются вопросы применения международных норм в области прав человека в национальной судебной системе, их юридическая сила, прямое применение и проблемные аспекты на практике. Проанализировано влияние международно-правовых инструментов, включая ООН, Европейский суд по правам человека и другие региональные механизмы, на деятельность судов. Также будет оценен уровень применения международных норм в узбекском законодательстве и судебной практике. Автор выявляет препятствия на пути реализации международных норм через суды и дает рекомендации по их устранению.*

## INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO-HUQUQIY NORMALARNI SUDLARDA QO'LLASH



## Xusanova Surayyoxon G'aybulla qizi

Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

khusanovasurayyokhan@gmail.com +998 50 887-74-04

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15400951>

### ARTICLE INFO

Received: 08<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 12<sup>th</sup> May 2025

Online: 13<sup>rd</sup> May 2025

### KEYWORDS

*Inson huquqlari, xalqaro normalar, sud amaliyoti, BMT, konstitutsiyaviy huquq, milliy qonunchilik, xalqaro shartnomalar.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada inson huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy normalarning milliy sud tizimida qo'llanishi, ularning huquqiy kuchi, bevosita amal qilinishi va amaliyotdagi muammoli jihatlari yoritilgan. Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan BMT, Yevropa Inson huquqlari sudi hamda boshqa mintaqaviy mexanizmlarning sudlarga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligi va sud amaliyotida xalqaro normalarning qo'llanilish darajasi baholanadi. Muallif xalqaro normalarning sudlar orqali amalga oshirilishida yuzaga kelayotgan to'siqlarni ko'rsatib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi.*

Bugungi kunda inson huquqlarining xalqaro darajada kafolatlanishi huquqiy davlat barpo etishning ajralmas qismi hisoblanadi. Inson huquqlari bo'yicha qabul qilingan xalqaro hujjatlar, xususan BMTning Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi (1948), Yevropa inson huquqlari konvensiyasi (1950), bolalar, ayollar, nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyalar mamlakatlar zimmasiga aniq majburiyatlar yuklaydi.

Inson huquqlari deganda, davlat yoki mansabdor shaxslar tomonidan muayyan shaxsning yoki shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklariga rioya etilishi va buni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan davlat va individ o'rtasidagi o'zaro huquqiy munosabatlar tushuniladi. Bunday munosabatlarning buzilishi, ya'ni inson huquqlariga daxldor bo'lgan mavjud qonunlarga rioya qilmaslik, fuqarolarning o'z huquqlarini amalga oshirishlariga mansabdor shaxslar tomonidan to'sqinlik qilinishi, yoki bo'lmasa, davlat tomonidan o'zining xalqaro majburiyatlarining bajarilmasligi, xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka yetarli darajada implementatsiya qilinmasligi va ularga amaliyotda yetarli darajada rioya etilmasligi kabi holatlar mamlakatdagi inson huquqlarining buzilishi holatlariga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi ham inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilgan. Biroq xalqaro normalarning milliy sudlarda qanday tatbiq etilishi, ularning yuridik kuchi va bevosita amal qilishi masalalari hali-hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

Inson huquqlarini himoya qilish xalqaro huquqning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. BMTning Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi (1948), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966), Qiynoqlarga qarshi konvensiya va boshqa ko'plab xalqaro hujjatlar inson sha'ni va erkinligini kafolatlaydi. Bu hujjatlarda belgilangan me'yorlar nafaqat xalqaro darajada, balki milliy sud tizimida ham qo'llanilishi kerak.

Milliy sudlarda xalqaro huquqiy normalarning qo'llanilishi ikki shaklda kuzatiladi: **bevosita qo'llash va qonunchilik orqali inkorporatsiya qilish.** Bevosita qo'llash holatida



sudya xalqaro hujjatni to'g'ridan-to'g'ri yuridik manba sifatida ishlatadi. Inkorporatsiya qilishda esa xalqaro norma milliy qonunga kiritilib, u orqali qo'llaniladi.

O'zbekiston amaliyotida xalqaro normalarning bevosita qo'llanishi hali keng tarqalmagan. Ko'pincha sudlar xalqaro hujjatga emas, balki milliy qonunchilikka tayanadi. Bu esa xalqaro norma ustuvorligini amalda cheklaydi. Ayrim sudlar xalqaro normalarni faqatgina deklarativ hujjat sifatida talqin qilmoqda, holbuki xalqaro shartnomalar Konstitutsiyada nazarda tutilganidek, milliy qonunlardan ustun bo'lishi mumkin.

Yevropa Inson huquqlari sudi qarorlarida ham inson huquqlari bo'yicha me'yorlar sudlar tomonidan mustahkam qo'llanilishi kerakligi ta'kidlanadi. Shuningdek, sobiq SSSR tarkibidagi ba'zi davlatlarda, masalan, Litva, Latviya yoki Moldova sudlari xalqaro normalarni bevosita manba sifatida ishlatish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

O'zbekistonda ham bu borada ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, Konstitutsiyaga 2023 yilda kiritilgan o'zgartishlar va Konstitutsiyaviy sud faoliyatining kuchaytirilishi xalqaro normalarning sudlar orqali amalga oshirilishiga turtki bo'lmoqda.

### **Sudlarda xalqaro huquqni qo'llash muammolari**

Amaliyotda esa sudlarning xalqaro huquq normalariga murojaat qilishi sust. Ko'pgina hollarda sudlar milliy qonunchilik doirasidan chiqmaydi yoki xalqaro norma faqat deklarativ xarakterga ega deb baholanadi.

Sabablardan biri – xalqaro normalarning bevosita tatbiq etilishi borasida sudyalarda amaliy bilim va tajribaning yetishmasligidir. Boshqa sabab – milliy qonunchilik bilan xalqaro norma o'rtasida muvofiqlik yetishmasligi.

Misol uchun, qiynoqlarga qarshi xalqaro konvensiya O'zbekistonda ratifikatsiya qilingan bo'lsa-da, mahalliy sudlar hali-hanuz bu norma asosida jinoyat ishlarini ko'rib chiqmayapti.

### **Qonunchilikdagi integratsiya tajribalari**

O'zbekiston qonunchiligida so'nggi yillarda xalqaro norma va prinsiplarga moslashtirish ishlari olib borilmoqda. 2023 yildagi Konstitutsiyaviy islohotlar, sud-huquq sohasidagi yangilanishlar, yangi tahrirdagi Jinoyat kodeksi loyihasi buning yorqin misolidir.

Shuningdek, ba'zi yangi qonunlarda xalqaro shartnomalar bevosita ko'rsatilmoqda. Masalan, "Bola huquqlari to'g'risida"gi qonun BMTning Bola huquqlari konvensiyasiga moslashtirilgan.

Sudyalarning malakasini oshirish instituti, Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Markaziy Osiyo xalqaro huquq markazi tomonidan xalqaro huquq bo'yicha treninglar o'tkazilmoqda.

Sudlarda xalqaro normalarni tatbiq etish bo'yicha quyidagi holatlar aniqlanmoqda:

- Sudlar xalqaro shartnomalarga bevosita tayanmaydi, ularni yordamchi manba deb hisoblaydi;
  - Qonunchilikda xalqaro norma ustuvorligi nazarda tutilgan bo'lsa-da, amaliyotda bu amalga oshmayapti;
  - Sudyalarning xalqaro huquqiy hujjatlarni sharhlash malakasi past darajada;
  - Fuqarolar, advokatlar ham bu normalarga asoslanib da'vo arizalarini rasmiylashtirmaydi.
- Shu bois xalqaro norma va prinsiplarning sudlarda samarali ishlashi uchun:

1. **Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash**, ya'ni xalqaro shartnomalarni bevosita amal qiluvchi sifatida qonunlarga inkorporatsiya qilish;



2. **Sudyalarining malakasini oshirish**, ular uchun xalqaro huquq bo'yicha amaliy qo'llanmalar yaratish;

3. **Sud qarorlarida xalqaro normalarga tayanish amaliyotini kuchaytirish** – bu nafaqat qonunchilikdagi ishonchni, balki sud qarorlarining adolatli va xalqaro mezonlarga mos bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbekiston sudlari tomonidan inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyalari normalari keng qo'llanilishi lozim. Toshkent shahrida 22-24 sentyabr kunlari tashkil etilgan uch kunlik seminarda ishtirok etgan sud'yalar ushbu sohaning amaliy jihatlari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Poytaxtimizda 22 sentyabr kuni o'z ishini boshlagan «O'zbekiston Respublikasi sudlari qarorlarida BMTning inson huquqlari to'g'risidagi konvensiyalari normalarining qo'llanilishi» mavzuidagi amaliy seminarda Toshkent shahri ma'muriy sudlari, jinoyat hamda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlari, sudyalari ishtirok etdi.

Amaliy seminar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) hamda BMT Taraqqiyot dasturining «O'zbekistonda qonun ustuvorligi sohasida hamkorlik» qo'shma loyihasi doirasida hamda, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi va YeXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi bilan birgalikda tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori A.Saidov, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi K.Komilov, AQSHning O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi D.Rozenblyum, YEHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi J.MakGregor va BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili M.Dimovska anjuman ishtirokchilarini qutlab, sudlar tomonidan inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro shartnomalar normalarining qo'llanilishi odil sudlovni ta'minlashda juda muhim masala hisoblanishini ta'kidladilar.

O'zbekiston Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi Farmonida va ushbu hujjat bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasida shaxsiy hamda siyosiy huquqlarni himoya qilish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar, xususan, xalqaro huquq prinsiplari, normalari hamda O'zbekistonning xalqaro shartnomalari sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan keng qo'llanilishi; xalqaro huquq ustuvorligi prinsipini amalga oshirishning samarali mexanizmini yaratish; sudlarning mustaqilligini va xolisligini ta'minlash maqsadida sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish; “Xabeas korpus” institutini yanada takomillashtirish yo'li bilan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda sud hokimiyatining rolini oshirish masalalari belgilangan.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro shartnomalar normalarining qo'llanilishi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. So'zga chiqqanlar milliy sudlar tomonidan BMT konvensiyalari normalarini sud hujjatlarida qo'llashga doir samarali mexanizmning joriy etilishi, o'z navbatida, sud tizimi mustaqilligini yanada mustahkamlash va sud hokimiyati nufuzini oshirishga xizmat qiladi, degan yakdil fikrni bildirdilar.



Bu, shuningdek «Sudyalar xulqiga oid Bangalor prinsiplari»ni amalda tatbiq etishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur xalqaro-huquqiy hujjatga muvofiq, xalqaro qonunchilikdagi, jumladan, xalqaro konvensiyalar va inson huquqlariga taalluqli normalar belgilangan boshqa hujjatlardagi tegishli o'zgarishlardan sudyalarning o'z vaqtida xabardor bo'lishi – ular o'z faoliyatini talab darajasida amalga oshirishining zarur shartlaridan hisoblanadi.

Amaliy seminarining birinchi kuni mashg'ulotlarida Toshkent shahri ma'muriy sudlari, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlari, sudyalari qatnashdi.

Albatta, qo'yilayotgan maqsad va vazifalarga ta'lim tizimisiz erishib bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz ta'lim tizimida barcha sohalar kabi yurisprudensiya sohasiga ham e'tibor kuchaytirilmoqda. Ayniqsa, inson huquqlari sohasidagi ta'limga ham katta e'tibor qaratilmoqdaki, bu sohadagi ta'lim sifatini oshirish fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat qurishda, fuqarolarning huquqiy savodxonligini yanada yuksaltirishda asosiy omil bo'lib qolmoqda.

**Xulosa qilib aytadigan bo'lsak**, Xalqaro huquqiy normalarni milliy sudlarda qo'llash inson huquqlarini real himoya qilishning muhim mexanizmlaridan biridir. Sudlar xalqaro shartnomalarni faqat deklaratsiya sifatida emas, balki bevosita qo'llaniladigan yuridik hujjat sifatida qabul qilishi kerak. Buning uchun sudyalarning malakasini oshirish, xalqaro huquq bo'yicha maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqish va qonunchilikdagi kolliziyalarni bartaraf etish zarur.

Shuningdek, sud-huquq islohotlari jarayonida inson huquqlariga oid xalqaro normalarni milliy tizimga to'liq integratsiyalash bo'yicha strategik yondashuv ishlab chiqilishi kerak. Bu esa O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash bilan bir qatorda, fuqarolarning real huquqiy himoyasini ta'minlaydi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy normalarni sudlarda qo'llash – huquqiy davlatning asosiy ko'rsatkichidir. Milliy sudlar xalqaro shartnomalarni yuridik kuchga ega hujjat sifatida tan olishi, ulardan bevosita foydalanishi va ularni qarorlar asosiga aylantirishi lozim.

O'zbekistonda xalqaro normalarni tatbiq etish bo'yicha ijobiy harakatlar boshlangani holda, bu yo'nalishda tizimli va izchil islohotlarni davom ettirish, sud organlari faoliyatida xalqaro huquq me'yorlaridan keng foydalanishni amaliyotga joriy etish zarur.

## References:

1. Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi, BMT, 1948 y.
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023 y. tahriri.
4. Karimov N.A. "Xalqaro huquq va inson huquqlari", T.: Adolat, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi qarorlari to'plami, 2022.
6. Bobojonov R. "Sud-huquq tizimida xalqaro norma va standartlarning ahamiyati", *Yuridik fanlar jurnali*, 2021, №3.
7. Yevropa Inson huquqlari sudi amaliyoti. Strasburg, 2019.
8. "Milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalar: uyg'unlik muammolari", *Huquq va taraqqiyot*, 2022.
9. "Qiynoqlarga qarshi konvensiya", BMT, 1984 y.



10. Karimov N.A. "Xalqaro huquq: nazariya va amaliyot". – T.: Adolat, 2021.
11. Bobojonov R. "Sudlar va xalqaro huquq: milliy yondashuvlar". – *Yuridik fanlar*, 2022, №2.
12. Toshkent davlat yuridik universiteti o'quv-metodik qo'llanmalari, 2023.
13. Yevropa Inson huquqlari sudi qarorlari to'plami. Strasburg, 2021.
14. Fayziyev I. Sh. & Toshpo'latov A. (2022) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQILLIKDAN OLDINGI VA KEYING SIYOSIY HAYOTI. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development* Volume-10, Nov., 2022 31-34b
15. Toshpo'latov , A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(5 Part 2), 170–178.
16. Temirov, J. ., & Toshpo'latov , A. (2023). TYUTOR PEDAGOGIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Наука и инновация*, 1(28), 29–32.
17. Umarova , G. ., & Toshpo'latov , A. . (2024). Klaster tanqidiy fikrlash texnologiyasi texnikasi sifatida. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(10), 49–55.
18. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIYA. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION*, 2(4), 30–31.
19. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). IJTIMOIIY TARMOQLARIDA "OMMAVIY MADANIYATGA" QARSHI KURASHISHNING DIDAKTIK VOSITALARI. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION*, 2(4), 27–29.
20. <http://nhrc.uz/oz/news/mezhdunarodnye-normy-po-pravam-cheloveka-primeneniye-v-sudah-shag-za-shagom>
21. <https://srsl.uz/adminpanel/files/global/kitoblar/44/Inson%20huquqlari%202.pdf>